

“TASDIQLAYMAN”  
O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti huzuridagi Statistika  
agentligi direktori o‘rinbosari



Z. Ziyayev

2024-y. “28” iyun

## INTERAKTIV XIZMATINING REGLAMENTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA  
AGENTLIGINING RASMIY VEB-SAYTIDA “FOYDALI MA’LUMOTLAR”  
BO‘LIMIDA “ISTE’MOL NARXLARI INDEKSI KALKULYATORI”  
INTERAKTIV XIZMATINI TAQDIM ETILISHI.

### 1. Xizmatning ta’rifi (pasport)

#### 1.1. Xizmat nomi

Statistika agentligining rasmiy veb-saytida “Foydali ma’lumotlar” bo‘limida iste’mol narxlari indeksi kalkulyatoridan foydalanish interaktiv xizmatini taqdim etilishi.

#### 1.2. Xizmat natijasi

Muayyan davrlar uchun O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha iste’mol narxlari indeksi ko‘rsatkichi haqida axborot.

#### 1.3. Xizmat ko‘rsatish organlari va blankalarni olish joylari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy veb-sayti.

#### 1.4. Huquqiy asoslar

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagи “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori.

#### 1.4. Xizmat qabul qiluvchilari

Manfaatdor davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar.

#### 1.5. So‘rov berish muddatlari

So‘rov berish muddati o‘rnatilmagan.

#### 1.6. Bajarilish muddati

Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy veb-saytiga, murojaat qilinganda – onlayn rejimda.

#### 1.7. Tasdiq berilish muddati

O‘rnatilmagan.

## **2. Xizmat qabul qiluvchilarini habardor qilish**

### **2.1. Axborot tarkibi va hajmi**

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha iste’mol narxlari indeksi ko‘rsatkichi:

- o‘tgan oyga nisbatan;
- o‘tgan yilning dekabriga nisbatan.

### **2.2. Katta miqyosda xabardor qilish**

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha iste’mol narxlari indeksi ko‘rsatkichi Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytining “Ochiq ma’lumotlar” bo‘limida e’lon qilib boriladi.

### **2.3. So‘rov bo‘yicha xabardor qilish**

Shaxsan: 9-00 dan 18-00 gacha xizmat bo‘yicha har qanday savol yuzasidan og‘zaki konsultatsiya (10 daqiqadan ortiqmas). Murojaat uchun telefon raqami: (71) 202-81-74.

Telefon orqali: 9-00 dan 18-00 gacha xizmat bo‘yicha har qanday katta xajmdagi aniq axborot berilishini talab qilmaydigan savol yuzasidan og‘zaki konsultatsiya (5 daqiqadan ortiqmas). Murojaat uchun telefon raqami: (71) 202-81-74.

Elektron pochta orqali: onlayn rejimda [info@stat.uz](mailto:info@stat.uz) elektron pochtasiga yozma so‘rovlarni keng tarqalgan matn formatlarida (oddiy matn, biriktirilgan fayl DOC, RTF, PDF ) yoki kelishilgan boshqa formatlarda qabul qilish, 9-00 dan 18-00 gacha yozma hujjatlarni oddiy matn formatida, biriktirilgan fayl DOC, RTF, PDF formatida yoki kelishilgan boshqa formatlarda uzatish.

Statistika agentligi rasmiy saytiga shaxsiy murojaat – onlayn rejimda.

### **2.4. Xizmat ko‘rsatish joyi haqida xabardor qilish**

O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirzo-Ulug‘bek tumani, 100192, Mustaqillik shoh ko‘chasi 63.

### **2.5. Foydalilaniladigan hujjatlar blanklari (shakllar)**

Tasdiqlangan va o‘rnatilgan tartibdagi jadval namunalari.

## **3. Xizmat ko‘rsatish**

### **3.1. Ish vaqtি**

Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytiga murojaat; Ish tartibi: onlayn rejimda.

### **3.2. Kutish shartlari**

Xizmat onlayn rejimda ko‘rsatiladi.

## **4. Xizmat ko‘rsatish tartibi**

### **4.1. Shart bo‘lgan hujjatlar**

Talab etilmaydi.

### **4.2. Xizmat haqi**

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

### **4.3. Interaktiv xizmatining ko'rsatilish bosqichlari**

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha iste'mol narxlari indeksi kalkulyatoridan foydalananish uchun, [www.stat.uz](http://www.stat.uz) saytiga kirish lozim. Saytning asosiy sahifasi pastki qismidagi "Foydali ma'lumotlar" bo'limini tanlash kerak. Narx indeksini hisoblash uchun qiziqtirayotgan davr tanlanadi.

### **4.4. Interaktiv xizmatini ko'rsatishda idoraviy ichki tartiblar**

1. Har oy uchun iste'mol narxlari indeksi ko'rsatkichini shakllantirish;
2. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha iste'mol narxlari indeksi ko'rsatkichini Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida e'lon qilish.

### **4.5. Rad etish asosi**

O'rnatilmagan.

## **5. Sifat ta'minoti**

### **5.1. Sifat parametrlari**

Xizmat ko'rsatish sifati taqdim etilayotgan xizmatlar uchun o'rnatilgan tartibga muvofiq.

### **5.2. Sifatsiz xizmatga shikoyat**

Shikoyat, o'rnatilgan tartibda statistika organlariga yozma murojaat orqali yoki Statistika agentligining rasmiy saytidagi qayta aloqa shakli orqali amalga oshiriladi.

### 5.3.Statistika ma'lumotlarini taqdim etish bo'yicha interaktiv xizmatini ko'rsatish sxemasi

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Murojaatchi <i>(yuridik yoki jismoniy shaxs)</i>	Statistika agentligining <a href="http://www.stat.uz">www.stat.uz</a> rasmiy saytiga bevosita murojaat etadi.	O'z xohishiga ko'ra
2-bosqich	Statistika agentligi	O'zbekiston Respublikasi bo'yicha iste'mol narxlari indeksi ko'rsatkichini agentlik saytida yangilab boradi.	Doimiy
3-bosqich	Murojaatchi	Statistika agentligi saytida "Foydali ma'lumotlar" bo'limida iste'mol narxlari indeksi kalkulyatoriga kirib, qiziqtirayotgan davrni tanlaydi	O'z xohishiga ko'ra
4-bosqich	Murojaatchi	Tanlangan davr bo'yicha jadval ma'lumotlarini Excel yoki PDF formatida yuklab oladi.	Real vaqt rejimida